SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 2. Jild 4.

2024

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V4I2Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 2(4) - 2024***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2024**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймахамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Файзуллаева Мавлюда Хамзаевна*
ЎЗБЕК ВА ТОЖИК АНЪАНАВИЙ ТАОМЛАРИДА ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРНИНГ АКС ЭТИШИ (СУРХОН ВОҲАСИ МИСОЛИДА) ..... 10-15

*Umarov Sardor Yakubovich*
QAYTA BIRLASHGAN GERMANIYADA MEHNAT BOZORINI ISLOH QILISH, AHOLI BANDLIGI, DEMOGRAFIK OʻZGARISHLAR ..... 16-20

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Shadiyeva Gulnora Mardiyevna*
O’ZBEKISTONDA EKSPORTNING OSHISHINING IQTISODIY O’SISHGA TA’SIR ETISH YO’LLARI ..... 21-29

*Халилдинов Азизбек Абдуқаххорович*
КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БОШҚАРИШГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР ..... 30-34

*Мавлянов Мажид, Урдушев Хамракул*
КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ: ЧОРВАЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ ..... 35-45

*Асроров Азизбек Исомиддин угли*
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПРИРОДА РИСКОВ, ВОЗНИКАЮЩИХ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ..... 46-52

*Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi, Achilboyeva Sevinch O’tkir qizi*
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARI HISOBI TASHKIL ETISHNING NAZARIY JIHATLARI. 53-60

*Камалов Акмал Сайдакбарович*
ХАЛҚАРО ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ ЭҲТИМОЛЛИГИНИНГ ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИГИГА ТАЬСИРИНИ БАҲОЛАШ УСЛУБИЯТИ ИШЛАБ ЧИҚИШ ..... 61-68

*Namazov Gafur Shokulovich*
IQTISODIYOTDA GIBRID MODELLARNI QO’LLASH ..... 69-75

### *09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ*

*Rasulov Azizkhon Mukhamadqodirovich*
YANGI O’ZBEKISTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING TIZIMLI O’ZGARISHI ..... 76-81

*Kadirova Ziyoda Rahimdjanovna*
ISLOM FALSAFASIDA ILM TUSHUNCHASINING MOHIYATI ..... 82-86

*Turdiyev Bexruz Sobirovich*
JAMIYAT IDEOSFERASINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI ..... 87-92

*Alimatova Nargis Abduxalilovna*
KONSTITUTSIYADA HALOL RAQOBAT KAFOLATI ..... 93-98

*Abdullayev Ibodulla Abdullayevich, Mustafoyeva Feruza Xurshid qizi*
MA'NAVIYAT – YANGI OʻZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUHIM POYDEVORIDIR..... 99-103

*Кувандиков Шокир Облокулович*
МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙ МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ ФАЛСАФИЙ МАНБАЛАРИ ........ 104-111

*Yusupaliyev Orzimurod Odilovich*
YOSHLAR MAFKURAVIY ONGI TRANSFORMATSIYALASHUVINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI: MUAMMO VA YECHIMLAR ........ 112-119

*Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li*
BADIIY MUHITDA TANQIDIYLIK VA SATIRANING TABIIY KOMMUNIKATSIYASI ........ 120-125

## 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

*Saitova Nilufar Djumaydillayevna*
YOSH O'ZBEK SHOIRLARI: VOQELIKNI IDROK ETISH VA UNI BADIIY IFODALASH TENDENSIYALARI ........ 126-130

*Nurmanov Furqat Xayitqulovich*
O'G'UZ" ETNONIMI VA O'G'UZLAR ........ 131-137

*Qudratova Sitora Olimovna*
AQSH HIKOYACHILIGI TARIXI VA SPETSIFIKASINING BADIIY IFODASI HAMDA JANR IJODKORLARI ........ 138-148

*Fayziyeva Aziza Anvarovna, Safarova Nigora Axatovna*
METAFORALARNING O'ZBEKCHA TARJIMASIGA KOGNITIV YONDASHUV ........ 149-153

*Qodirova Madinabonu Murodjon qizi*
LINGVISTIK TA'MINOT VOSITALARI: TUZILISHI VA TARKIBI ........ 154-159

*Аллабердиева Регина, Мадалов Навруз*
ТАКСОНОМИЯ ГЕНДЕРНО-МАРКИРОВАННЫХ ПАРЕМИЙ - РЕГУЛЯТИВОВ АНГЛИЙСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ ........ 160-165

*Azimova Aziza Alisher qizi*
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KONCHILIK LEKSIK BIRLIKLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSUYATLARI ........ 166-172

*Shoymardonov Ilhom Alixonovich*
BAHOR, YOZ, KUZ MAVSUMLARI BILAN BOG'LIQ BOLALAR QO'SHIQLARI ........ 173-178

*Raxmatova Dilafruz Nusratilloyevna*
SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI ........ 179-184

*Mirzayev Jasur, Madalov Navruz*
THE DIALOGIC NATURE OF PERSONIFICATION IN THE POETICS OF WILLIAM BLAKE ........ 185-190

*Yuan Xiaowei*
ON THE TITLE AND LEXICAL FEATURES OF THE WINTER OLYMPICS NEWS REPORT IN CHINA DAILY ........ 191-197

## 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

*Ражабов Нариман Шарифбаевич*
НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОБРОВОЛЬНОЙ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СЕРТИФИКАЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ........ 198-206

*Yakubova Iroda Bahramovna*
MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA MUALLIFLIK

HUQUQI OBYEKTLARIDAN FOYDALANUVCHI SHAXSLAR OʻRTASIDAGI SHARTNOMALAR TASNIFI ........ 207-212

*Inoyatov Behruzjon Umidjon oʻgʻli*
TOVAR BELGILARINING HUQUQIY JIHATDAN MUHOFAZA QILISHNI TARTIBGA SOLUVCHI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ........ 213-220

*Раимова Шохсанам Ғайратжоновна*
РЕЦИДИВ ЖИНОЯТЛАР ВА УЛАРНИНГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ ........ 221-227

*Mukumov Bobur*
CURRENT ISSUES OF IMPROVING THE PROTECTION OF INTELLECTUAL PROPERTY AT THE INTERNATIONAL LEVEL ........ 228-234

*Нодирахон Абдурахманова*
ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИИ БЛОКЧЕЙН, СМАРТ-КОНТРАКТОВ И КРИПТОВАЛЮТ НА РАЗВИТИЕ ПРАВА ........ 235-239

*Акмалхонов Боситхон Азизхон ўғли*
ЗАЩИТА ПРАВА ЧАСТНОЙ СОБСТВЕННОСТИ В ПРАКТИКЕ ЕВРОПЕЙСКОГО СУДА ПО ПРАВАМ ЧЕЛОВЕКА ........ 240-246

*Turakulova Nazira*
MUALLIFLIK HUQUQIDA MULKIY HUQUQLARNI JAMOVIY BOSHQARISH ........ 247-260

*Якубов Бекзод Эркинбаевич*
КЕЧИКТИРИБ БЎЛМАЙДИГАН ҲОЛЛАРДА ТЕЗКОР – ҚИДИРУВ ТАДБИРЛАРИНИ ЎТКАЗИШ ТАРТИБИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ........ 261-265

**13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Mamajonov Xoshimjon Abdumalikovich*
FIZIKA FANINI IJODIY O`ZLASHTIRISH YOʻLLARI (AKADEMIK LITSEYLAR MISOLIDA) ........ 266-271

*Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna*
OʻZBEKISTON OLIY OʻQUV YURTLARIDA ISPAN TILI BOʻYICHA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI OʻQITISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH ........ 272-281

*Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich*
TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRATSIYASI ........ 282-287

*Jumayev Xushboq Soatmumin oʻgʻli*
KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI OʻQUVCHILAR XOTIRASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI ........ 288-291

*Omonqulov Ulugʻbek Maxsiddin oʻgʻli*
IQTIDORLI OʻQUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI ........ 292-296

*Jumaboev Nabi Pardaboevich*
THE NEED TO USE AESTHETIC VIEWS OF EASTERN THINKERS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM ........ 297-304

*Kayumov Erkin Kazakbayevich*
TASVIRIY SAN'ATNING OʻQUVCHILAR IDROKI VA IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI ........ 305-310

*Yusupova Feruza Hajiboyevna, Gaipova Nilufar Jasurbekovna*
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING EKOLOGIK TA'LIM BERISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARNING ROLI ........................................ 311-317

*Karshiboyeva Dilafruz Boxodirovna*
SOMONIYLAR DAVRI SAN'ATI VA UNING JAHON TARIXIDAGI ROLI ........................................ 318-322

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 2(4) - 2024.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

**Fayziyeva Aziza Anvarovna**
Buxoro davlat universiteti
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
a.a.fayzieva@buxdu.uz

**Safarova Nigora Axatovna**
Buxoro Davlat Universiteti
Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik
Mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

## METAFORALARNING O'ZBEKCHA TARJIMASIGA KOGNITIV YONDASHUV

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kognitiv tilshunoslikda metaforalarning talqini haqida so'z boradi. Metaforalar bir jismning, voqelikning, materiyaning boshqacha so'zlar bilar atash san'ati bo'lib, uning ildizi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Tabiiy jarayonlar in'inikosida paydo bo'lgan metaforalar, o'z-o'zidan tarixiy, ijtimoiy, ekologik, siyosiy jarayonlar natijasida o'zgarishlarga uchraydi. Asrlar davomida metaforalarga bo'lgan qiziqish bir oz sekinlashdi. Chunki olimlar metafolarni shunchaki bir jism, hodisa yoki voqelikni boshqacha nom bilan tasvirlash deb hisoblab kelishgan. Ammo 20-asrga kelib til hodisalariga antrposentrik jihatdan yondashuv ilgari surilgandan so'ng, tilning barcha jihatlari qatorida metaforalarga ham pragmatik, lingvamadaniy va umuman kognitiv yondashish lozimligini taqozo qildi. Maqolada turli davrlarda yashab o'tgan olimlar va tadqiqodchlarning metaforalar borasidagi fikri va qarashlariga murojaat qilingan. Shu bilan birgalikda ba'zi bir metaforalar kognitiv tahlil qilinib, tarjimada ularni ifodalovchi ekvivalentlarini qanday tanlash kerakligi haqida so'z boradi.
**Kalitso'zlar:** kognitiv tilshunoslik, metaforalar, pragmatika, tarjimada kognitiv muvofiqlik

**Faizieva Aziza Anvarovna**
Bukhara State University
Doctor of Philosophy in Philology (PhD)

**Safarova Nigora Akhatovna**
Bukhara State University
Comparative linguistics, linguistic translation studies
2nd year master's degree

## COGNITIVE APPROACH TO TRANSLATING METAPHORS INTO UZBEK LANGUAGE

**Abstract.** The article discusses the interpretation of metaphors in cognitive linguistics. Metaphors are the art of describing the body, reality, matter in different words, and its roots go back to ancient times, changes as a result of political processes. Over the centuries, interest in metaphors has waned somewhat, as scholars have long viewed metaphors as simply describing an object, event, or reality under another name. But by the 20th century, after the anthropocentric approach to linguistic phenomena became widespread, a pragmatic, linguistic, and generally cognitive approach to metaphors was required among all aspects of language. The article discusses the opinions and views of scientists and researchers who lived in different eras regarding metaphors. At the same time, some metaphors are cognitively analyzed and the question of how to choose equivalents to represent them in translation is discussed.
**Key words:** cognitive linguistics, metaphors, pragmatics, cognitive coherence in translation.

**Фаизиева Азиза Анваровна**
Бухарский государственный университет
Доктор философии в филологии (PhD)

**Сафарова Нигора Ахатовна**
Бухарский государственный университет
Сравнительная лингвистика, лингвистическое переводоведение
магистрант 2-го курса

# КОГНИТИВНЫЙ ПОДХОД К ПЕРЕВОДУ МЕТАФОРЫ НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

**Аннотация.** В статье рассматривается интерпретация метафор в когнитивной лингвистике. Метафоры – это искусство описания тела, реальности, материи разными словами, и корни ее уходят в глубокую древность, изменения в результате политических процессов. С течением веков интерес к метафорам несколько ослаб, поскольку ученые уже давно рассматривают метафоры просто для описания объекта, события или реальности под другим именем. Но к 20-му веку, после того как антропоцентрический подход к языковым явлениям получил распространение, среди всех аспектов языка потребовался прагматический, лингвистический и в целом когнитивный подход к метафорам. В статье рассматриваются мнения и взгляды ученых и исследователей, живших в разные эпохи, относительно метафор. При этом когнитивно анализируются некоторые метафоры и обсуждается вопрос о том, как выбрать эквиваленты, представляющие их в переводе.

**Ключевые слова:** когнитивная лингвистика, метафоры, прагматика, когнитивная связность при переводе.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I2Y2024N21

**Kirish.** An’anaviy ravishda she’riy bezak sifatida qabul qilingan metafora kognitiv tilshunoslik sohasida chuqur ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola kognitiv tilshunoslikning asosiy qoidalarini va kognitiv jarayonlarning metaforalar va lingvistik iboralarni shakllantirishdagi asosiy rolini oʻrganadi.

Asrlar davomida metafora turli xil tadqiqotlar mavzusi boʻlib kelgan. Metaforalarning tabiati Aristotel davridan buyon qizgʻin munozaralarga sabab boʻlgan. Aristotel fikriga koʻra metaforalar bir narsaning nomini boshqa bir narsaga qoʻyilishi, shu narsaga nisbatan roʻy beradigan hodisa yoki harakat sifatida taqdim etiladi: oʻzgartirilgan atamaning qoʻllanilishi bir turning xususiyati boshqasiga oʻtishi bilan izohlanadi [3; 1447].

Nom begona narsaga qoʻyilgandan soʻng, u nimanidir yaqqol ifodalashi kerak, aks holda tushunish qiyin. Aristotelning fikricha metaforalar yaratishning toʻrt xil imkoniyati bor va ular quyidagilar: jinsdan turga, turdan jinsga, turdan turga; va oʻxshashlik yoki mutanosiblik boʻyicha; bunda oʻxshashlik aniq koʻrinishi kerak. *“Nevertheless, the virtues of metaphor include clarity, warmth, facility,appropriatenessandelegance, and finally “metaphor sets the scene before oureyes”* [3; 1410b].

Asrlar davomida metaforalarga boʻlgan qiziqish bir oz sekinlashdi.Chunki olimlar metafolarni shunchaki bir jism, hodisa yoki voqelikni boshqacha nom bilan tasvirlash deb hisoblab kelishgan.Biroq, 20-asrga kelib Chomskiy koʻpchilikning e’tiborini tilshunoslikka qaratadi. U oʻzining ”Til va aql” asarida, tilshunoslikni kognitiv psixologiyaning bir tarmogʻi ekanligini ta’kidlaydi: ”I think there is more of a healthy ferment in cognitive psychology –and in the particular branch of cognitive psychology known as linguistics – than there has been for many years…if we are ever to understand how language is used or acquired, then we must abstract for separate and independent study a cognitive system, a system of knowledge and belief.“ [3; 4].

Chomskiyning e’tirof etishicha, “biz bugungi kunda Dekartdan uch asr oldin boʻlgani kabi, insonga innovatsion, ragʻbatlantiruvchi nazoratdan holi, shuningdek, toʻgʻri va izchil gapirishga nima imkon berishini tushunishdan uzoqmiz” [6; 13]. Kognitiv tilshunoslik chuqur tuzilish va oʻzgarishlar oʻrniga, tushunchalar nuqtai nazaridan tilga e’tibor qaratadi va u metafora tabiati haqida tushuntirish berishi mumkin boʻlgan oʻzaro bogʻliq elementlarga ega boʻlgan ma’no va tarmoqni ochishga qiziqadi. Kognitiv tilshunoslik uchun metaforalarni tabiiy til tarkibiga kiritish gʻoyasi keng ma’qullangan boʻlib, shu tariqa metaforalarning ildizlarini oddiy, aniq soʻzlarga murojaat qilgan holda izlash lozim boʻladi.

Sossyur fikricha, metaforik tasnif qanday boʻlishidan qat’i nazar, oʻz qadr-qimmatiga ega boʻlishi kerak edi. Brugman Rosch va Kay va MakDaniel har bir soʻz kichik bir tadqiqot sifatida, inson bilan bogʻliq voqeliklarni tasniflashda sozlarni toifalarga boʻlib chiqish muhimligini ta’kidlashdi .

Shunga qaramay, metaforalarni tahlil qilish orqali ular bizning kundalik jismoniy tajribamizga asoslanganligi va ular Gʻarb an’analarida (“Metafora — qisqartirilgan oʻxshatish”) ildiz otgan oʻxshatishlarga unchalik yaqin emasligi ayon boʻldi.

Metaforalarni oʻrganayotganda madaniy stereotiplarni hisobga olish kerak, masalan, eskimos tilidagi “qorli” metafora har qanday Afrika tilidagidan farqli assotsiatsiyalarni keltirib chiqaradi. Boshqa tomondan, diaxronik nuqtai nazardan qaraganda, oʻnlab yillar yoki asrlar ilgarigi metaforalar ham oʻzgargan boʻlishi mumkin va muhim yoki osonlik bilan kuzatilgan oʻxshashliklar unutilishi mumkin.

Mavhum obyektlar koʻpincha metafora, ya’ni, konkret kategoriyalar yordamida aniqroq ifodalanadi [3; 6]. Binobarin, metaforalar voqelikni tasvirlamaydi, lekin ular notanish elementlarni bizga koʻproq tanish boʻlganlari bilan ifodalaydi va shu bilan bizning atrofimizdagi dunyoni qanday koʻrishimizni qisman ochib beradi.

Kognitiv tilshunoslikning an’anaviy tilshunoslikdan farqi shundaki, u til, fikr va tajriba oʻrtasidagi munosabatni ta’kidlab, tubdan farq qiladi. Til shunchaki voqelikni aks ettiradi degan fikrdan voz kechib, insonning dunyo haqidagi konseptual tushunchalarini qanday aks ettirishi va shakllantirishiga e’tibor qaratadi.

1960-70-yillardan boshlab faylasuflar va tilshunoslar metaforaga ijobiy qiziqish bildira boshladilar. Blek metaforalarning oʻziga xos, mohiyatan nopropozitsiyaviy ma’nosi yoki kognitiv ahamiyati borligini qat’iy ravishda ta’kidladi. Masalan, oy nuri va shirin uyqu. Ularning koʻpchiligi metaforalarning soʻzma-soʻz absurdligi jumlaga yangi semantik ma’no beradigan “metaforik burilish” (Beardsley) ni keltirib chiqarishini taklif qildi. Ba’zilar, Berdsli kabi, “burilish” metaforik iboraning oddiy konnotatsiyasini uning denotatsiyasiga aylantirishni taklif qildi. Vaynrayx va Levin kabi boshqalar, u iboraning leksik yozuvidagi tanlash cheklovlari va semantik belgilarni oʻzgartiradi, deb ta’kidladilar (ya’ni, ibora qanday turdagi obyektlarga qoʻllanilishi va qanday boshqa iboralar bilan birlashishi mumkinligi spetsifikatsiyasi). Bu nazariyalar metaforalarga jiddiy yondashuvning isbotidir. Shu bilan birga barcha metaforalar ham tom ma’noda yolgʻon yoki absurd emas (masalan, Koen): oʻylab koʻring,

*“No man is an island”.*

*“Anchorage is a cold city”.*

Shunday qilib, bunday holatlar muqobil mexanizmga muhtoj boʻlib, ularning ma’nosini “burish” mumkin. Asosiysi, bu nazariyalarning barchasi “burilish” faqat qaysidir ma’noda uning bir qismi boʻlgan xususiyatlarga ta’sir qilishi mumkinligini taxmin qildi.

Biz metaforalarning tarixiy hisobi allaqachon kognitiv talqinni qamrab olganligini koʻrishimiz mumkin, chunki soʻnggi 50 yillik tadqiqotlar metaforalarga nisbatan zamonaviy yondashuvni namoyon qilgan.Keling, soʻnggi talqinlarni koʻrib chiqaylik. Moran fikriga koʻra,

poetika, ritorika, estetika, gnoseologiya, aql falsafasi va kognitiv tadqiqotlardagi metafora bilan bogʻliq masalalarni bir-biridan butunlay ajratib boʻlmaydi.

Kognitiv tilshunoslar metaforaning oʻrni inson tilining markazida ekanligini taʼkidlab kelishgan (Evans va Green). Asosiy gʻoya shundan iboratki, metafora (metaforik iboralar) bizning hayotiy tajribamizga asoslanadi va ularni sinxron ramkada tahlil qilish uchun zamin yaratadi.

Mittelberg [19; 34] Dirven, Wolf, Poltzenhagenga asoslanib taʼkidlaganidek, metaforalar madaniyatlarimizda mustahkam oʻrnashgan tasvirlar, his-tuygʻular, qadriyatlar, fikrlash shakllari va boshqalarni tashiydi; Kovechesh [12; 5] ham bu fikrni qoʻllab-quvvatlaydi.

Biz bu yerda faqat Rikoerning kognitiv tushunchalarga taalluqli piktogrammalarga (biror narsani ifodalovchi) asoslangan metafora nazariyasini eslatib oʻtmoqchimiz va u Vitgenshteynning taklifini , yaʼni ikkita domenning oʻxshashligini "qanday koʻrsa" shunday talqin qilishni qabul qiladi. Lakoff va Jonson ham barcha konseptlarning oʻz lugʻaviy maʼnosi bor va ularning hech biri metafora boʻlishi mumkin emas, deb aytishadi; ammo eng chuqur maʼnoga ega boʻlgan "vaqt" konsepti ham bir nechta metafora orqali tushuniladi va asoslanadi, shuning uchun qisqacha aytganda, metafora tabiiy hodisadir [10; 247].

Kundalik tilda metafora keng tarqalgan boʻlib, biz haqiqatni qanday qabul qilishimizga taʼsir qiladi. Ular nafaqat lingvistik iboralarni shakllantiradi, balki bizning fikrlash jarayonimizni ham boshqaradi, turli konseptlarni tushunishimizni belgilab beradi.

Tarjimada madaniy farqlar metaforik iboralarda namoyon boʻlib, tarixiy taraqqiyot va qadriyatlarni aks ettiradi. Madaniy metaforalarni tushunish turli qarashlar va ijtimoiy qarashlarning nozik tomonlari haqida tushuncha beradi.Masalan, uning qoʻli gul. Oʻzbek xalqiga xos boʻlgan bu metafora biror bir kontekstda kelganda ham, oʻzbek oʻquvchisi mahoratli bir inson haqida soʻz borayotganini darhol fahmlaydi. Ammo mazkur metafora ingliz tiliga soʻzma-soʻz tarjima qilinsa, oʻquvchi voqelikni fantastik jihatdan talqin qila boshlashi mumkin. Shuning uchun metafolar tarjima qilinayotganda oʻquvchiga xos muhit, mentalitet, madaniyat va boshqa jihatlar inobatga olinishi kerak va "He has skilfull fingers" tarzida muqobil variant berish mumkin.

*"The politicians' promises were empty vessels".* – "Siyosatchilarning bergan vaʼdalari aravani quruq olib qochish bilan teng edi."

Bunda xalqlarning geografik joylashuvi va ijtimoiy hayotidagi obyektlar namoyon boʻladi. Bu yerdagi qisman muvofiqlik shundaki, arava hamda kema turli xil transport vositalari ammo ularning ikkalasi ham boʻsh va bu, tinglovchiga vaziyatga qanday baho berish lozimligiga ishora qiladi.

Bundan tashqari, sheʼrlar yoki ularning butun bir bandi toʻliq metaforik ifodada berilishi mumkin. Masalan Shekspirning quyidagi jumlalari,

*All the world's a stage,*
*And all the men and women merely players;*
*They have their exits and their entrances,*
*And one man in his time plays many parts,*
*His acts being seven ages.*

Agar bu misralar kognitiv jihatdan talqin qilinadigan boʻlsa, sahna bu dunyo, insonlar maʼlum bir rolni oʻynovchi artistlar, kirish va chiqish bular, tugʻilish va oʻlimni tasvirlagan.

Metaforalar nafaqat tilshunoslik va adabiyotda, balki, psixologiya, sanoat va reklama, hatto siyosatda ham namoyon boʻladi. Metaforalarni anglab olish va tahlil qilish muloqot strategiyalarini kuchaytiradi, tadqiqotni osonlashtiradi, yashirin ochib beradi.

**Xulosa.** Kognitiv tilshunoslikning bir obyekti sifati orqali ochiladigan metaforalar oddiy til vositalaridan ustun turadi, inson idrokining nozik tomonlariga oyna boʻlib xizmat qiladi va bizning hislarimiz, fikrlarimiz va tilimiz shakllanishiga oʻz hissasini qoʻshadi. Chunki metaforalar til boyliklari orasida eng jozibadori va qiziqarlisidir.

**Адабиётлар/Литература/References:**

1. Alex Gomez-Marin.General Commentary: Metaphors We Live By. 29 June 2022. Alicante, Spain . doi: 10.3389/fcomp.2022.890531
2. Andrew Ortony. "Metaphor and Thought". Published by the Press Syndicate of the University of Cambridge.The Pitt Building, Trumpington Street, Cambridge CB2
3. Aristotle. 1954. Rhetoric. (Trans. by Rhys Roberts). New York: The Modern
4. Attila Imre. Metaphors in Cognitive Linguistics.Eger Journal of English Studies **X** (2010) 71–81
5. Brugman C. 1981. Story of Over. MA thesis. Berkeley: University of California. Reproduced by the Indiana University Linguistics Club.
6. Chomsky N. 1972. Language and Mind. Enlarged ed. New York, MIT: Harcourt Brace Jovanovich, Inc.
7. Cooper D. 1986. Metaphor. Oxford: Blackwell.
8. Elisabeth Camp. Metaphor And That Certain "Je Ne Sais Quoi". Philosophical Studies (2006) 129:1-25 _ Springer 2006 DOI 10.1007/s11098-005-3019-5
9. Elisabeth Camp. Metaphor in the Mind: The Cognition of Metaphor1.
10. George Lakoff, Mark Johnson. The Metaphorical Structure of the Human Conceptual System. Cognitive Science 4, 195-208 (1980)
11. George Lakoff. 2005. The Brains Concepts: The Role of the Sensory –Mtor System in Conceptual knowledge. Cognitive Neuropsycology, 22 (3/4), 455–479.
12. Kövecses Z. 2005. Metaphor in culture: Universality and variation. Cambridge, MA/New York: Cambridge University Press.
13. Lakoff G., Johnson M. 1999. Philosophy in the Flesh: The Embodied Mind and Its Challenge to Western Thought. New York: Basic Books.
14. Lakoff G., Johnson, M. 1980. Metaphors We Live By. Chicago and London: The University of Chicago Press, completed with an Afterword in 2003.
15. Lakoff George. Conceptual Metaphor in Everyday Language. 1980-08-01. The Journal of Philosophy, 77(8)
16. Levin, S. R. (1977). The Semantic of metaphor. Baltimore, MD: Johns Hopkins University Press
17. Martin J.R.Metaphors we feel by: stratal tension. Journal of World Languages. 2020, VOL. 6, NOS. 1–2, 8–26 https://doi.org/10.1080/21698252.2020.1720158
18. Michiel Leezenberg. 2012. From Cognitive Linguistics to Social Science: Thirty Years after Metaphors We Live By. University of Amsterdam
19. Mittelberg, I., Farmer, T.A., & Waugh, L.R. 2007. They actually said that? An introduction to working with usage data through discourse and corpus analysis. In M. Gonzalez-Marquez, I. Mittelberg, S. coulson & M. J. Spivey (eds.) Methods in Cognitive Lingvistics. Amsterdam: John Benjamins, 20-52

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V4I2Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 2 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).